



CAJEM

- SCIENCE

Central Asian Journal of
**ECONOMICS AND
MANAGEMENT**

Osiyo iqtisodiyot va
**MENEJMENT
JURNALI**

Ilmiy-amaliy jurnal
№4 | 2023

UZBEKISTAN

ISSN 2181- 4228
(Online)

*CAJEM-SCIENCE***«Osiyo iqtisodiyot va menejment jurnali»****«Central asian journal of economics and management»****«Центрально-азиатский журнал экономики и менеджмента»**

ELEKTRON JURNAL

Nashr №4. (oktyabr, noyabr, dekabr, 2023)

Elektron jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 02.08.2022 yil sanada №1690 guvohnomasi bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal tashkilotchisi: «I-EDU GROUP» MChJ**Xalqaro indeksi:** ISSN 2181-4228 (Online)**Tahririyat telefon raqami:** +998 (94) 018-02-55**Tahririyat manzili:** 111519. Toshkent shaxri. Yangi hayot tumani, Ho'ja Uchqun MFY, Daryobo'yi ko'chasi 34 uy.**Web-sayt:** <https://cajem-science.org>**E-mail:** info@cajem-science.org**JURNAL QUIYIDAGI BO'LIMLAR BO'YICHA ILMIY MAQOLALAR QABUL QILADI:**

- Raqamli iqtisodiyot.
- Yashil iqtisodiyot
- Buxgalteriya hisobi.
- Bank ishi.
- Biznes tadqiqotlari.
- Korporativ boshqaruv.
- Tibbiyot menejmenti.
- Boshqaruv etikasi.
- Tadbirkorlikni rivojlantirish.
- Ta'lim menejmenti.
- Moliyaviy boshqaruv.
- Sifat menejmenti.
- Xalqaro munosabatlar.
- Boshqaruv metodologiyasi.
- Boshqaruv falsafasi.
- Inson resurslari.
- Davlat boshqaruvi.
- Boshqaruv sotsiologiyasi.
- Xizmat ko'rsatish sohasi va turizm.
- Ishlab chiqarish.

OPEN ACCESS

*CAJEM-SCIENCE***TAHRIRIYAT JAMOASI TARKIBI****BOSH MUHARRIR - QIYOMIDDIN MUFTAYDINOV**

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Andijon, O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR YORDAMCHISI - SARVARBEK AVAZBEKOVICH MIRZAYEV

Andijon mashinasozlik instituti (Andijon, O'zbekiston)

TAHRIRIYAT JAMOASI**NODIRBEK IBRAGIMOVICH ASKAROV**

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Andijon, O'zbekiston)

ULUG'BEK ABDUXALILOVICH MADRAHIMOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), (Andijon, O'zbekiston)

ILXOMJON YULDASHEVICH UMAROV

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Andijon, O'zbekiston)

TOHIRJON OLIMJONOVICH MAXMUDOV

Namangan muhandislik texnologiya instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

GULBAXAR YESBOSINOVA TAJENOVA

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus, O'zbekiston)

SOBIR BAHRONOVICH ABDUJABBOROV

Samarqand davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Samarqand, O'zbekiston)

MUZAFFAR ESKANDAROVICH JO'RAXONOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

ZIYOYDIN ABDURASULOVICH ISRAILOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisod fanlari nomzodi (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

UMIDA ISMAILJANOVNA MARAIMOVA

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent (Andijon, O'zbekiston)

DILMUROD VALIJON O'G'LI XAKIMOV

Toshkent davlat agrar universiteti, texnika fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Toshkent, O'zbekiston)

TURSUNBOY SOBIROVICH TURGUNOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

MUXAMMADAMIN ABDUVASITOVICH AXUNOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Andijon, O'zbekiston)

ILXOMJON IKROMOVICH ERGASHOV

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

NODIRBEK MADRAXIMOVICH RASULOV

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

BOBIR ORTIKMIRZAYEVICH TURSUNOV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

ABDULLAJON TOPILOVICH MIRZAYEV

Farg'ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, (Farg'ona, O'zbekiston)

GUZAL SHEROVNA XONKELDIEVA

Farg'ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, (Farg'ona, O'zbekiston)

HUMOYUN TOLIBJON O'G'LI QODIROV

Namangan muhandislik texnologiya instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

OYBEK TURGUNPULATOVICH AXMEDOV

Namangan muhandislik qurilish instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

DONIYOR XOMIDOVICH SARIMSAQOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANZIMLARI

U.M.Ablatov¹, U.A.Joldasbaeva¹

1. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston.

Correspondence: Ablatov Ulug'bek Majitovich, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.
e-mail: ablatovulugbek@gmail.com.

Received: 05 oktober 2023; **Accepted:** 21 november 2023; **Published:** 26 november 2023.

Annotatsiya. Maqolada asosan innovatsiyon tadbirkorlikni faliyatini olib borish, moliyalashtirish mexanzimlarini rivojlantirish yo'nalishlari va uning iqsodiy rivojlanish tendentsiyalari haqida aytib o'tilgan.

Kalt so'zlar. jahon iqtisodiyoti, innovatsiya, xo'jalik subektlari, iqtisodiyotni globallashuvi, innovatsion xavf va xatarlar.

Kirish

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasi bu jamiyatining barcha soha va jabhalarida, ayniqsa global iqlim o'zgarishi ta'sirida sayyoramizning ko'plab mintaqalarida tobora avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotari yetishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning xo'jalik yuritish faoliyatlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. Iqtisodiyot globallashuvining yangicha sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgisi ishlab chiqarishning texnologik usuli va ularning butun jamiyat iqtisodiy salohiyati ta'siridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Ko'pchilik zamonaviy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar nafaqat jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidagi markaziy bo'g'inini ham ifodalaydi.

Materiallar va usullar

Innovatsion rivojlanish tizimining ahamiyatli jihati shundaki, u iqtisodiyot tarkiban deformatsiyalangan, innovatsiya jarayonlarini boshqarish izdan chiqqan, qishloq xo'jaligi darajasida axborot vakumining mavjudligi sharoitlarida qisqa muddat ichida tarmoqni barqaror yuqori sur'atlarda o'sishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu tizimni shakllantirishda davlatning o'rni beqiyosdir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-texnik imkoniyatlari va ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalari to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish ularni xo'jalik yuritishning innovatsion usullariga o'rgatish, innovatsiya qoidalarini o'zlashtirish, maslahat yordamlari berish orqali ASMning innovatsiya faolligini ko'tarishni ta'minlash uchun sharoitlar yaratadi.

Lekin agrar tarmoq o'zining tabiiy-iqlim omillariga ta'sirchanligi va bog'liqligi sababli innovatsiyalarni yaratish va tatbiq etishda boshqa sohalarga nisbatan bir qator murakkabliklarga ega va shuning uchun ham uni innovatsion modernizatsiyalash asosida rivojlantirish o'ziga xos va mos innovatsion yo'nalishlarda chuqur ilmiy-tadqiqot va tajriba-kashfiyotchilik ishlarini muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi ko'p sonli dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati sharoitida agrar innovatsiya bozori shakllanishi va faoliyati xususiyatlari, yo'nalishlari to'g'risida aniq ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, olingan xulosalardan foydalanish borasidagi bilimlar yetishmasligi sharoitida, ilmiy ishlanmalarni innovatsion loyiha sifatida amalga oshirishga urinish yuz bermoqda. Bu esa innovatsion g'oyalarning iqtisodiy, texnik va texnologik, ekologik samaradorligi pasayishiga olib keladi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida raqobat muhiti tez sur'atlar bilan, rivojlanishi korxonalarda innovatsiyalar yaratish va innovatsiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Natijalarni muhokama qilish

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirishning samarali shakli sifatida davlat-xususiy sherikligi tamoyili asosida ya'ni davlat mexanizmidan foydalanib innovatsion

jarayonlarni rivojlantirishda xususiy biznesni ishtirokini rag'batlantirish, resurslarni birlashtirish, foyda va tavakkalchilikni taqsimlash, raqobat muhitini shakllantirish va shu bilan bir vaqtda-byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga turtki beradigan davlat kapitalini ishtiroki bo'lishi lozim. Iqtisodiy mexanizmning ta'sirchan roli natijasida qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish shakl va yo'llari tizimini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlar asosida qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirishning quyidagi shakl va yo'llari klassifikatsiyasi tizimi tavsiya etiladi.

Xulosa

Malakatda innovatsion sohani qo'llab qubbatlashga oyid qabul qilinayotgan meyoriy hujjatlarning aksariyati vaqtishalik xarakterga ega, yani qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar sheklangan muddatga ega, natijada strategik investorlar ushun mahalliy iqtisodiy muhitga ishonchsilikni namayon qiladi va ularni kamroq jozibador qiladi. Shu sababli beriladigan imtyozlar muddatini uzaytirish innovatsiyon tadbirkorlikninig rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorij tajriyasidan kelib shiqqan holda, respublikda venchur fondalrning asosiy manbalari sifatida davlat hamda xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda, sug'urta kompaniyalari, tijorat banklari va jismoniy shaxslarning mablag'lari kabi manbalarni ha'm jalb qilish maqsadga muvofiq hisobalandi.

Foydalanilgan adabyotlar ro'yhati

1. Sh.Atamaururov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqlar orqali rag'batlantirish afzalliklari // Istiqlol-2012 // Navoyii, 2003.
2. N.B.Ashurova., Sh.M.Eshniyazova., Sh.Atamaururov Korxonani inqirozdan qutqarish va moliyaviy sog'lamlashtirish tahlili // Namangan, 2003. – B.174-146.
3. Sh.M.Eshniyazova., Sh.Atamaururov. Innovatsiyon tavakkalshilikni baholash // Navoyii, 2003. – B.125.
4. Sh .Sitmuratov, G.Tajenova, A.Shamshetov "The basis of competitiveness and sustainable development: forming an innovative economy" NeuroQuantology// November 2022

ПОРЯДОК НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

А.Г.Нажимова¹, У.А.Жолдасбаева¹

1. Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий, Республика Каракалпакстан, Узбекистан.

Correspondence: Нажимова Айдана Гайратовна. Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий, Республика Каракалпакстан, Узбекистан.

e-mail: najimovaaydana@gmail.com.

Received: 02 november 2023; **Accepted:** 20 november 2023; **Published:** 26 november 2023.

Аннотация. В статье преимущественно говорится о порядке налогообложения физических лиц при предпринимательской деятельности и об особенностях организации налогообложения.

Ключевые слова. предпринимательская деятельность, физические лица, налогообложение, налоговое законодательство.

Введение

В мире существуют специфические аспекты организации предпринимательской деятельности и ее налогообложения. Система налогообложения доходов физических лиц от предпринимательской деятельности имеет свои и общие особенности. В мировой практике проводится множество научных исследований с целью повышения благосостояния населения за счет налогообложения предпринимательской деятельности физических лиц и самозанятости, а также их поддержки через налоговый механизм.

В структуре доходов населения Узбекистана важное место занимают доходы от предпринимательской деятельности. Налоги, взимаемые с физических лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью, невелики с точки зрения доходов бюджета, но охватывают широкие слои населения, повышают их благосостояние, создают основной или дополнительный источник дохода, снижают безработицу, обеспечивают социальную стабильность.

Материалы и методы

В Налоговом кодексе он был включен в подоходный налог с физических лиц. Однако исходя из годового оборота индивидуальных предпринимателей, определение обязанности по уплате им фиксированной суммы налога на прибыль или налога с оборота или налога на добавленную стоимость и налога на прибыль характеризуется резкими изменениями в системе налогообложения физических лиц, осуществляющих предпринимательскую деятельность. Действующая система налогообложения индивидуальных предпринимателей повысила значимость налогов, которые они платят.

При действующем порядке налогообложения физических лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью, их налоговые обязательства увеличиваются пропорционально увеличению их доходов от реализации товаров (услуг).

Согласно налоговому законодательству Узбекистана индивидуальным предпринимателем являются физические лица. На основании этого они считаются плательщиками других налогов, уплачиваемых физическими лицами. Индивидуальные предприниматели уплачивают данные налоги со своего имущества и земельных участков исходя из норм, установленных Налоговым кодексом. Также индивидуальные предприниматели, использующие воду в своей хозяйственной деятельности, платят налог за использование водных ресурсов. Кроме того, индивидуальный предприниматель уплачивает социальный налог независимо от количества рабочих дней в календарном месяце. Налог, взимаемый с физических лиц, состоящих в трудовых отношениях с индивидуальным предпринимателем, исчисляется индивидуальным предпринимателем (налоговым агентом) и удерживается у источника выплаты.

Обсуждение результатов

Исследования показывают, что в опыте развитых стран налогообложения доходов физических лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью, этот особый порядок нало-

гообложения не применяется.

В зарубежной практике налогообложения доходов особое значение имеет индивидуальная предпринимательская деятельность и деятельность самозанятых граждан. В последние годы деятельность индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц развивается во многих странах мира. В зарубежной практике нет четкого разграничения между индивидуальным предпринимателем и самозанятыми гражданами. Обычно самозанятые лица относят к категории индивидуальных предпринимателей, и их деятельность облагается налогом в определенном порядке. В развитых странах самозанятых называют фрилансерами.

Мировой опыт показывает, что в некоторых странах при выборе порядка налогообложения четко не разграничиваются категории малого бизнеса, индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц. В большинстве стран эти налогоплательщики обязаны платить подоходный налог с населения и другие налоги.

Заключение

В налоговом законодательстве доходы от предпринимательской деятельности не включаются в совокупный доход физических лиц. Порядок налогообложения индивидуальных предпринимателей отличается от порядка налогообложения доходов самозанятых или пассивно зарабатывающих физических лиц. Поэтому доходы от предпринимательской деятельности не учитываются при исчислении НДФЛ. Данная ситуация представлена применением отдельного порядка налогообложения при налогообложении доходов физических лиц. Но когда речь идет о составе совокупного дохода физических лиц, необходимо учитывать доходы, полученные от предпринимательской деятельности.

Список литературы

1. Зотиков Н.З. Особенности налогообложения физических лиц в Германии //Вестник Евразийской науки. 2020 .
2. Агзамов А.Т. Совершенствование практики налогообложения физических лиц: автореферат. Т.: ТЭУ, 2019.
- 2 . Сафарова Н.А. Совершенствование налогообложения физических лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью //журнал Финансы. Т., 2020. №2. 123-131 б. (08.00.00; №12).

IQTISODIYOTNING TIKUVCHILIK VA TO‘QIMACHILIK SANOATI BOSHQARUVIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALAR

M.O‘O‘smonjonov¹ 

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O‘zbekiston.

Correspondence: O‘smonjonov Muxammadisoq O‘tkirbek o‘g‘li, University of Economics and Pedagogy, assistant.
e-mail: muxammadisoqosmonjonov@gmail.com.

Received: 12 november 2023; **Accepted:** 22 november 2023; **Published:** 02 december 2023.

Annotatsiya. Hozirgi kunda bulutli texnologiya resurslaridan va xizmatlaridan foydalanish har bir tashkilot uchun qulaylik tug‘dirmoqda. Ayniqsa ma‘lumotlar bazasini saqlash va havfsizligi ta‘minlashda bulutli texnologiyalar o‘z so‘zini aytmoqda. Ushbu maqolada bulutli boshqaruv va tahlil yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar. bulutli texnologiya, bulutli hisob-kitob, monitoring, provayder, internet, aloqa.

Tikuvchilik va ishlab chiqarish ta‘minot zanjiri ishtirokchilari mehnat xarajatlarini kamaytirishdan tashqari, foydani oshirish yo‘llarini izlashlari kerak. Eng muhim jihatlardan biri ta‘minot zanjiri hamkorlari bilan aloqadir. Axborot texnologiyalari yordamida hamkorlik qilish to‘siqlarni yengib o‘tishda asosiy yo‘nalish bo‘lishi kerak. Hamkorlar o‘rtasidagi hamkorlik ta‘minot zanjirini yanada samarali qilish uchun juda muhim bo‘lib bormoqda.

Bulutli hisoblash - talab bo‘yicha, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan hisoblash resurslarini hamma joyda tarmoqqa ulanishi, joylashuvga bog‘liq bo‘lmagan resurslarni birlashtirish va axborot texnologiyalari tomonidan faollashtirilgan tezkor moslashuvchanlik bilan ta‘minlash modeli. Bulutli hisoblash birinchi navbatda noaniq ko‘rinadigan navbatdagi ajoyib tendentsiyadir, lekin u taqdim etayotgan xizmatlar nuqtai nazaridan o‘lchanadigan bo‘lsa, bu Internetda mavjud bo‘lgan eng zamonaviy va mashhur kompyuter tizimidir. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida ushbu hisoblash tizimi turli xil muhim xizmatlarni taqdim etadi. To‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida kompaniyaning turli faoliyatini osonlashtirish uchun mo‘ljallangan ma‘lum noyob boshqaruv tizimlari mavjud.

Bulutli hisoblash Internetga asoslangan hisoblashning bir turi bo‘lib, unda umumiy resurslar, dasturiy ta‘minot va ma‘lumotlar elektr energiyasiga o‘xshash talab bo‘yicha kompyuterlar va boshqa qurilmalarga yuboriladi. Bulutli hisoblash - bu mahalliy server yoki shaxsiy kompyuter emas, balki Internetga asoslangan masofaviy serverlar tarmog‘i orqali ma‘lumotlarni saqlash, boshqarish va qayta ishlash usuli. Bulutli hisoblashni qo‘llab-quvvatlaydigan odamlar, bu biznesga infratuzilma xarajatlarini kamaytirish yoki yo‘q qilishga yordam beradi, deb hisoblashadi.

Kiyim-kechak, poyabzal va aksessuarlar sanoati ushbu texnologiyadan turli yo‘llar bilan foyda olishlari mumkin. Bu sizga istalgan vaqtda istalgan joydan kompaniyangizga kirishni ta‘minlovchi virtual ofisni o‘rnatish imkonini beradi. Bugungi ish muhitida (masalan, smartfonlar va planshetlar) foydalaniladigan internetga ulangan qurilmalar sonining ko‘payishi tufayli ma‘lumotlaringizga kirish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

To‘qimachilik va tikuvchilik sanoatini turli xil faoliyat turlaridan tashkil topgan ta‘minot zanjiri deb hisoblash mumkin. Ta‘minot zanjiri jadal ravishda yaxlit ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida tashkil etilmoqda, har bir operatsiya xom ashyo olishdan tortib, dizayn va ishlab chiqarishgacha, tarqatish va marketinggacha yakuniy mahsulot qiymatiga eng ko‘p qo‘shilishi mumkin bo‘lgan joyga joylashtiriladi. Xarajatlar, sifat, yetkazib berish ishonchligi, sifatli ma‘lumotlarga kirish, transport va tranzaksiya xarajatlari har bir faoliyatni qayerda joylashtirishni hal qilishda e‘tiborga olinadigan asosiy omillardir.

Ta‘minot zanjiri boshqaruvi - bu yakuniy mijozning ehtiyojlarini samarali va samarali qondirish uchun hamkorlikdagi jarayon va loyihalarni boshqarish yondashuvidir. Hamkorlik ta‘minot zanjirini muvaffaqiyatli boshqarishning eng muhim jihatlardan biridir. Shuni ta‘kidlash kerakki, ta‘minot zanjirlarida uch turdagi oqim mavjud:

Birinchi tur. Mahsulotlarni qaytarish, xizmat ko‘rsatish va qayta ishlash - bularning barchasi etkazib beruvchilardan mahsulot oqimini ifodalovchi moddiy oqimlarga misoldir.

5-15 tomonni o'z ichiga oladi. Ular ham turli millatlardan, turli vaqt zonalariga ega va turli tillarda gaplashadi. Biroq, bulutli texnologiyadan foydalanib, bir vaqtning o'zida barcha tomonlar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish mumkin. Natijada, agar tegishli rejalashtirish, texnologiya va operatsiyalar amalga oshirilsa, bulutli hisoblash haqiqiy qutqaruvchi bo'lishi mumkin.

Iste'molchilarning g'ayrioddiy talablari, turli savdo hamkorlari va boshqa omillar tufayli to'qimachilik va tikuvchilik sohasini oldindan aytib bo'lmaydi. Mijozlarning umidlari allaqachon yuqori bo'lganligi sababli, kiyim-kechak va ishlab chiqarish ta'minot zanjiri hamkorlari mehnat xarajatlarini kamaytirish va foydani saqlab qolishdan tashqari, boshqa yondashuvlarni ham qo'llashlari kerak. Bulutli hisoblash kiyim-kechak sanoati uchun ta'minot zanjirini muvofiqlashtirishga erishish uchun ideal echimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Kiron MI. Cloud Computing in Textile and Fashion Industry. Text Learn 2021. <https://textilelearner.net/cloud-computing-in-textile-and-apparel-industry/> (accessed February 19, 2024).
2. Cloud Computing in Textiles - Fibre2Fashion n.d. <https://www.fibre2fashion.com/industry-article/6906/cloud-computing-in-textiles> (accessed February 19, 2024).
3. Fashion Industry Cloud Computing n.d. https://www.apparesearch.com/terms/c/cloud_computing.html (accessed February 19, 2024).

ZAXIRALAR HISOBI: AMALIYOTDAGI AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

M.Z.Mamatxonov¹

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O'zbekiston.

Correspondence: Mamatxonov Muxitdin Zuxriddinovich. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O'zbekiston.
e-mail: mamatxonov@internet.ru.

Received: 15 november 2023; **Accepted:** 25 november 2023; **Published:** 14 december 2023.

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tib kelmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga tadbiq etish jarayonida esa qator o'ziga xos muammolar paydo bo'lmoqda.

Maqolada shunday muammoli vaziyatlardan biri zaxiralar hisobining amaliyotda yuzaga kelgan ayrim muammolar va ularning echimlari yoritib berilgan.

Ayniqsa amaliyotda buxgalterlarning aksariyat qismining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga duch kelmaganliklari, milliy standartlarning amaliy faoliyatda ishlatilmaganligi oqibatida korxonalarda zaxiralar hisobini o'zini tashkil etish qiyinlashmoqda.

Mazkur masalada muallifning buxgalterlarning va auditorlarning jamoat tashkilotlarida va ularning joylardagi filiallarida amaliyotchi buxgalterlarning malakalarini oshirish to'g'risidagi fikri jiddiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. xalqaro standartlar, zaxiralar, moliyaviy hisobot, milliy standartlar.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida "Buxgalteriya hisobi sub'ektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llashi mumkin"[1] - deb ko'rsatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 fevraldagi 4611 sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"[2] gi qaroriga asosan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha hisobot topshirishlari belgilangan.

Amaliyotda mazkur tadbirni amalga oshirish uchun keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hisobot ishlarini to'la o'z ichiga qamrab olganligi sababli muallif zaxiralar hisobi bo'yicha ayrim muammolar va ularning yechimlariga o'zining e'tiborini qaratgan.

Amaliyotda zaxiralar hisobini to'g'ri tashkil etilishi va ularni o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirib borilishi bevosita korxonalarining daromadlari (foydasi)ga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, zaxiralarning ishlab chiqarishga me'yorlar asosida berilishi, tayyor mahsulotlarning me'yorlar asosida qabul qilib olinishi ortiqcha sarflar va braklarning maksimal darajada kamayishiga olib keladi.

Bu esa o'z navbatida daromadlarning ko'payishi demakdir.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun zaxiralar hisobi "Zaxiralar" nomli 2-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan amalga oshirilmoqda.

Biroq, amaliyotda ayrim korxonalar va tashkilotlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tmaganliklari sababli zaxiralar hisobi "Tovar-moddiy zaxiralar"[3] nomli 4-son Buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan tashkil etilgan.

Xuddi shu nuqtai nazardan mamlakatimizdagi korxonalar va tashkilotlarni bosqichma-bosqich moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishi va o'tish davrida xalqaro standartlarga hali o'tmagan kompaniyalarda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xam xarakterda bo'lishini e'tiborga olgan holda "Zaxiralar" hisobini tartibga soluvchi xalqaro va milliy buxgalteriya hisobi standartlarini amaliyotdagi holati o'rganib chiqildi.

Standartlarni o'rganish ularni qo'llash doirasi, hisob ob'ektini aniqlash, tan olish, dastlabki tan olishda baholash, keyingi hisobda va ob'ektni tasarruf etishda baholash hamda buxgalteriya hisobotlarida zaxiralar haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish xususiyatlari orqali amalga oshiriladi.

Amaliyotda zaxiralarni baholashning tannarx yoki sof sotish qiymatidan kichigi bilan baholash natijasida moliyaviy hisobotda o'zgarishlar yuzaga keladi.

Zaxiralarning tannarxi yoki hisobda turgan narxi ularning sof sotish qiymatidan yuqori bo'lsa, zaxiralar sof sotish qiymatida aks ettirilishi lozim.

Zaxiralarning sifatini to'liq yoki qisman yo'qotgan yoki sotish qiymati pasaygan qismi bo'yicha hisobot yili oxirida balansda moddiy aktivlar qiymatining pasayishidan ko'riladigan zarar yuzasidan tashkil qilingan rezerv summasi ayrilgan holda aks ettiriladi.

Zaxiralar qiymatini pasayishidan ko'riladigan zararni qoplash maqsadida tuziladigan rezerv korxonaning moliyaviy natijalari hisobidan qoplanadi.

Agar uning haqiqiy tannarxi joriy bozor qiymatidan yuqori bo'lsa, joriy bozor qiymati va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq miqdori bo'yicha shakllanadi.

Tuzilishiga ko'ra zaxiralarni ikki toifaga bo'lish maqsadga muvofiqdir: ishlab chiqarish va sotish uchun mo'ljallangan zahiralar.

Ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan zahiralar tarkibiga xom ashyo va materiallar va o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar kiritilsa, sotish uchun mo'ljallangan zaxiralarga tayyor mahsulotlar va tovarlarni kiritish mumkin.

Zaxiralar korxonaning buxgalteriya balansiga tannarxi bo'yicha kiritiladi, u xarid qiymati (etkazib beruvchiga to'lanadigan summalar) va ularni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan bojxona bojlari va yigimlari; tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq va yig'imlar summolari (agar ular qoplanmasa); tovar-moddiy zaxiralar ular orqali xarid qilingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik xaqi; tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo'yicha xarajatlar; tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlarini va tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Korxonadagi zaxiralarning bozor baholarini hisobga olgan holda hisobini yuritish uchun, korxonaning ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olgan holda, zaxiralar uchun aylanish davri meyorini aniqlash kerak.

Aylanish muddati meyoriy davrdan oshib ketgan zaxiralar ularni qadrsizlanishini aniqlash yuzasidan ko'rib chiqilishi lozim.

Aynan shu masalada amaliyotdagi buxgalterlar tomonidan oqsash kuzatilmoqda, ya'ni amalda qadrsizlangan zaxiralarga qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar hisobi olib borilmayapti.

Mazkur kamchilikni bartaraf etish uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha amaliyotchi buxgalterlarga ham nazariy ham amaliy jihatdan yordam berish zarur.

Eng asosiysi "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) bilan "Zaxiralar" nomli 2-sonli MHXS(IAS) o'rtasidagi farqlar eng kam bo'lgan tushinishi jixatidan ham ularni amaliyotda qo'llanilishi nuqtai nazaridan ham oson hisoblangan standartlardir.

Shunga qaramasdan, mazkur standartlarni amaliyotga joriy etish bir qancha muammolarni taqdim etmoqda.

Masalan, "Zaxiralar" deb nomlangan 2-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartining 18 – moddasida tadbirkorlik sub'ekti tovar-moddiy zaxiralarni to'lov muddatini uzaytirib to'lash shartlarida sotib olishi mumkin deb ko'rsatilgan[4].

Agar bunday kelishuv amalda moliyalashtirish elementini o'z ichiga olsa, bu element, masalan, odatdagi shartlarda kreditga sotib olish narxi va to'lov summasi orasidagi farq, ushbu moliyalashtirish davrida foiz xarajatlari sifatida tan olinishi shart deb ko'rsatilgan.

Masala bu yerda sotib olinayotgan zaxiralarning to'lov muddatini uzaytirib to'lash shartlarida ustida ketyapti. To'lovning bo'lib to'lanishi xaqiqatdan ham foiz xarajatlari sifatida tan olinishi kerakligini anglatadi.

Biroq, yillar davomida o'rganilgan hisob usullaridan birdaniga voz kechish yangi tizimni yaxshi o'zlashtirishni(bilimni) talab qiladi, salbiy tomoni esa zaxiralar hisobida o'zlashtirish uchun yangi "tuynuk"lar vujudga kelishi mumkin.

Hisobvara q fakturalarda moddiy qiymatliklar butligi saqlanishi uchun qabul qilinayotgan zaxiralar to'la aks ettirilishi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ko'zda tutilgan istisnolardan

foydalanish, vaqt oralig'ida vujudga keladigan farqlarni esa moliyaviy xarajatlarga olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchi masala bu muddatidan ortiqcha vaqt omborxonalarda qolayotgan zaxiralar bo'yicha rezerv hisoblash.

Odatda zaxiralar bir yilgacha davrda ishlatilishi yoki sotib yuborilishi nazarda tutiladigan aktivlar bo'lib, zaxiralarning mazkur muddatdan ortiqcha omborxonada qolib ketishi natijasida narxlarning pasayishi natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar summasiga rezerv qilinishi kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun. 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son O'zbekiston Respublikasining Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi №4611 sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.08.2021 y., 06/21/6280/0811-son)
3. O'zbekiston Respublikasi konun xujjatlari to'plami, 2006 yil, 28-29-son, 282-modda
4. Zaxiralar buxgalteriya hisobining 2-sonli xalqaro standarti. 18- modda. QMMB: 10/22/3400/1087-son 13.12.2022-y

MUNDARIJA

№	Mavzu nomi	Muallif	Bet
1	INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILY IQTISODIY MEKANZIMLARI	U.M.Ablatov, U.A.Joldasbaeva	04-05
2	ПОРЯДОК НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	А.Г.Нажимова, У.А.Жолдасбаева	06-07
3	IQTISODIYOTNING TIKUVCHILIK VA TO'QIMACHILIK SANOATI BOSHQARUVIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALAR	M.O'.O'smonjonov	08-10
4	ZAXIRALAR HISOBİ: AMALIYOTDAGI AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI	M.Z.Mamatxonov	11-13

«Central Asian Journal of Economics and Management» elektron jurnali

Nashr №4. (oktyabr, noyabr, dekabr, 2023)

<https://cajem-science.org>

Bog'langan tizimlar

Google scholar

ResearchBib ([OAK 14 baza](#))

va boshqa bazalar